

BIOLOGIYA DARSLIGI TAHLILI

Abdulkhaimova.G.X

abdulkhaimovagulchiroy046@gmail.com

Bahromova.F.B

Andijon Davlat Pedagogika insituti biologiya yo'nalishi talabalari.

Annatsiya: O'quvchilarga maktabda biologiya fanidan sifatli, yo'nalgan, tushunarli ta'lim berishda maktab o'quv darsliklarini o'rni ham juda katta. 7-sinf o'quv darsligini 2017-yil nashri bilan 2002-yil nashrlari taqqoslab tahlilli o'rganildi.

Annotation: School textbooks have a great role in providing high-quality, targeted and understandable biology education to students at school. The 7th grade textbook was studied analytically by comparing the 2017 edition with the 2002 edition.

Kalit so'zlar: O'quv darslik, biologiya, o'simliklar, hayvonlar, mavzular, ma'lumotlar, laboratoriya mashg'uloti, amaliy mashg'ulot.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga fanlar tizimlashtirilgan tarzda tashkillashtiriladi. Har bir fan darsliklari o'quvchilarni yoshi, tushunish darajasiga qarab tuziladi. Biologiya darsliklari ham shunday tuzilgan. 7-sinf biologiya darsligini 2017-yil nashrda asosan o'quvchilarga hayvonlar haqida umumiy tushunchalar berib ketilgan. Hayvonlarni tashqi-ichki tuzilishi, ko'payishi, tarqalish va yashash joylari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Darslik O.Mavlonov tomonidan tuzilgan. Qayta ishlangan va to'ldirilgan to'rtinchi nashr O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tomonidan tasdiqlangan. Darslik so'zboshi VIII bob 59-mavzu, 5 ta laboratoriya mashg'uloti 206 sahifadan iborat. Mavzular hayvonlar haqida ma'lumot berishdan boshlanib yuksak sutemizuvchi hayvonlar bilan yakunlangan.[1]

Keyingi yil nashri esa avvalgi yil nashrdan tubdan farq qilinadi. 2022-yil nashrda esa tirik organizmlar haqida umumiy tushunchalar berib ketilgan. O'simlik, hayvon va odam oranizmlarini taqqoslab keltirilgan. Ya'na tur, populyatsiya, ekosistema, biosfera haqida ham ma'lumotlar bor. Darslik K.Saparov, I.lazimov, M.Umaraliyev, Z.Tillayeva, I.Abduraxmanova, U.Raxmatov, S.Haytbayeva, M.Bo'ronboyevalar tuzgan. XI bob 59 ta mavzular va amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, loyiha ishi, atamalar lug'ati 174 betdan iborat. Mavzular tizimli tarzda keltirilgan. Nazariy mavzulardan keyin mavzuni chuqur o'zlashtirishi uchun laboratoriya, amaliy mavzular keltirilgan. Laboratoriya, amaliy darslar o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishini ortkizadi, tushunishini osonlashtiradi. Darslik ma'lumotlari soddadan murakkabga tomon tuzilgan. Darslikda o'tgan yildagi ma'lumotlarni takrorlab qo'shimcha yangi ma'lumotlar o'zlashtiriladi.

“Ta'lim to'g'risida”gi qonunni takomillashtirish bo'yicha ishchi guruh tuzildi

Qonunchilik palatasiga ko'ra, 2020 yilda qabul qilingan qonunni "sohadagi islohotlar va bugungi kun talabidan kelib chiqib takomillashtirish" zarurati tug'ilgan.

Qonunchilik palatasi Kengashining qarori [bilan](#), "Ta'lim to'g'risida"gi qonunni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo'yicha ishchi guruh tuzildi. Qarorda qonunni "sohada olib borilayotgan islohotlar va bugungi kun talabidan kelib chiqib takomillashtirish" zarurati borligi aytiladi. Guruh o'z takliflarini bir oylik muddatda, ta'lim to'g'risidagi milliy qonunchilikni va ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini o'rgangan holda ishlab chiqishi va Qonunchilik palatasining Kengashiga taqdim etishi kerak. 28 nafar a'zodan iborat ishchi guruhga palata spikeri Nurdinjon Ismoilov raislik qiladi. Guruhdan parlament vakillari, hukumat rasmiylari va boshqalar o'rin olgan. 2023 yil aprel oyida Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi tashkil etilib, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining ta'lim mazmunini belgilovchi (ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va darsliklarga oid) qator vakolatlari shu markazga qaratilgan edi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda bu markaz ta'lim sohasidagi vakolatli davlat organlari qatorida aks etmagan. Qonun bundan 3 yil oldin – 2020 yil 24 sentabrdan kuchga kirgan.

Darsliklar asosan o'quvchilarga maktab kutubxonasi tomonidan yetkaziladi. Maktab kutubxonalari axborot va bilimga tobora ko'proq asoslanib borayotgan zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli faoliyat olib borish uchun fundamental ahamiyat kasb etuvchi ma'lumot va g'oyalarni taqdim etadi. Maktab kutubxonalari o'quvchilarni umrbod ta'lim olish ko'nikmalari bilan qurollantiradi, ularning tasavvurlarini rivojlantiradi va bolalarning mas'uliyatli fuqaro bo'lib yetishishlariga ko'maklashadi. Joriy o'quv yilida maktablarda o'quv darsliklarining o'rtacha ijara narxi ikki baravarga oshdi. Davlat umumiy o'rta ta'lim davlat tomonidan kafolatlangani uchun maktab darsliklari ijarasi uchun to'lovning mavjudligi Konstitutsiyaga zid. Yangi o'quv yilining birinchi kunidayoq prezident maktab darsliklarini bepul ijaraga berishni buyurdi. Buning uchun prezident Administratsiyasi rahbarining topshirig'i bilan darsliklar sifatini tekshirish bo'yicha ishchi guruhi tashkil etildi. Bundan tashqari, darsliklarni tayyorlash, nashr etish, tannarx va tarqatish tizimini tanqidiy ko'rib chiqish rejalashtirilayapdi.[3]

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. 2017-yil 7-sinf biologiya darsligi
2. 2022-yil 7-sinf biologiya darsligi
3. «KITOB BILIM BULOO'I, YOKI KITOB IJARASI QONUNGA ZIDMI» SHokirova Nazokatxon Inomjonovna Toshpolatova Dilnozaxon Musajonovna Tojiboeva Dilraboixon Solijonova tezis *Международный научный журнал № 3 (100), часть 1 «Научный импульс» Октябрь, 2022*